

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

ESHMANOV OTABEK BAXRIDDIN O‘G‘LI

**STRESS HOLATINING O‘SMIR YOSHDAGI SPORTCHILAR
FAOLIYATIGA PSIXOLOGIK TA‘SIRI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Eshmanov Otabek Baxriddin o'g'li

Stress holatining o'smir yoshidagi sportchilar faoliyatiga psixologik ta'siri..... 3

Эшманов Отабек Бахриддин угли

Психологическое влияние стрессовых ситуации на деятельность спортсменов-подростков..... 23

Eshmanov Otabek Baxriddin son

Psychological influence of stressful situations on the activities of teenage athletes..... 43

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 48

**TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

ESHMANOV OTABEK BAXRIDDIN O'G'LI

**STRESS HOLATINING O'SMIR YOSHDAGI SPORTCHILAR
FAOLIYATIGA PSIXOLOGIK TA'SIRI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/P404raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.si-ik.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdurasulov Rustam Abduraimovich
psixologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullaeva Barno Sayfutdinovna
psixologiya fanlari doktori, professor

Xayitov Abror O'ralovich
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi PhD.03/30.12.2021.P.26.02.raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «_____» soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; ye-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat pedagogika universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27.Tel.: (+99871) 276-82-32.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «__» «_____» kuni tarqatildi.
(2024 yil «_____» _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi)

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor

N.B.Atabaeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi,
psixologiya fanlari doktori, professor

Z.T.Nishonova

Ilmiy darajalar beruvchi kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi,
psixologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida sport inson hayoti uchun jismonan, psixologik, ijtimoiy ahamiyatli eng ommalashgan faoliyat sifatida tan olingan. Sportning barcha yo'nalishlari o'zining muxlislari tomonidan e'tirof etilib, sport bilan shug'ullanishga intilish tendentsiyasi kuchayib bormoqda. Jumladan, Amerikaning ESPN telekanali tomonidan 2020 yil yakunlariga ko'ra e'lon qilingan ma'lumotlarda¹ dunyo bo'yicha o'smirlik davridagi o'quvchi yoshlarning: 34% - basketbol, 29% - kurash, 25% - futbol, 12% - sportning boshqa turlari bilan shug'ullanishlari aniqlangan. Psixologiya sohasi mutaxassislarining fikrlariga ko'ra esa - aynan o'smirlik davrida o'zini ta'kidlash ehtiyoji yuqori darajada namoyon bo'lishi stress holatiga psixologik ta'sirini yanada kuchaytirishini ta'kidlamodalar. Xalqaro sog'liqni saqlash tashkilotining 2019-yilda e'lon qilingan ma'lumotiga ko'ra, stress bilan bog'liq kasalliklar 65 foizni tashkil qiladi². Bu borada o'smirlik davridagi sportchilar faoliyatini samarali tashkil etish, sportchilarni psixologik tayyorlash masalasida stress muammosini alohida ilmiy tadqiq etish zarurati mavjud va dolzarb muammo sifatida e'tirof etilmoqda.

Jahon oliy ta'lim muassalari va ilmiy tadqiqot markazlarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida stress muammosi dolzarb masala sifatida e'tirof etilgan muammo bo'lib, sport faoliyati jarayonida sportchilarning stress holatiga tayyorlash, stress holatida o'zini-o'zi baholash va boshqarish, stress holatining sportchi barqarorligiga ta'siri, sportchilarning shaxs xususiyatlarining ahamiyati, stress holatidan chiqishda koping-strategiyalarning o'rni hamda frustratsiya holati masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada o'smir sportchilar faoliyatida stressning namoyon bo'lishi xususiyatlari, stressga munosabatini o'rganish, stressga moyilligi bor sportchilarni faoliyati jarayonida sportchi shaxsi xususiyatlari masalalarini ilmiy jihatdan tadqiq qilishga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonda so'ngi yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasiga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Bu sohani yanada rivojlantirish masalasi Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining 67-maqsadida o'z aksini topgan bo'lib, unda huquqiy-meyoriy asoslari yaratildi «... respublika yoshlari o'rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish, milliy sport turlarini va xalq o'yinlarini rivojlantirish, yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish»³ masalalari ustuvor vazifalar sifatida belgilanganligi, yoshlarni barkamol etib tarbiyalashda kurash turlari bilan shug'ullanishlari, ularni turli stressogen vaziyatlarga psixologik barqarorligini oshirishda kurash turlarining ahamiyatini oshirish va stressga barqaror shaxs xususiyatlarini shakllantirish masalalarini ilmiy o'rganishga zarur asos bo'la oladi.

¹<https://www.sportanddev.org/en/organisation/international-sport-organization> (ISO), Proceedings of the international seminar on the development of sports and youth sports. April 2019.

² World Health Organization – www.who.info

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/5841063ONOATEZ>= 29.01.2022.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2021-yil 6-apreldagi PF-6195-son «Turizm, sport va madaniy meros sohaslarida davlat-boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2020-yil 24-yanvardagi PF-5924-son «O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining BM-472-son 2019- yil 7-iyundagi «Psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va jamiyatda qonunbuzarlikning oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori va boshqa me‘yoriy huquqiy hujjatlar doirasida belgilangan strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda psixolog olimlardan psixologiya sohasida stress muammosi borasida ko‘plab tadqiqot ishlari olib borilgan. M.G.Davletshin, N.Z.Ismoilova, V.M.Karimova, R.S.Samarov, B.N.Sirliiev, G‘.B.Shoumarov, P.S.Ergashev U.D.Qodirov, K.B.Qodirov, O.E.Hayitov, A.O‘.Xayitov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida stress muammosiga yondosh bo‘lgan psixologik holatlar, ya‘ni, asabiylik, ruhiy tajanglik, ruhiy inqiroz, suitsidal hulq-atvor kabi stressga xos psixologik jihatlari haqida ma‘lumotlar tahlili yoritilgan. N.Z.Ismoilovanning ilmiy izlanishlari talabalarda stressga barqarorlikni oshirishning psixologik determinantlari masalasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda talabalarda stressga barqarorlikni darajasi, informatsion stress komponentlari, shaxslararo munosabat ustanovkalari, o‘ziga baho berish, frustratsion tolerantlik darajalari kabi psixologik determinantlari o‘rganilgan. Sport psixologiyasi yo‘nalishida R.A.Abdurasulov, X.Sh.Baratov, B.X.Fayzievlarning tadqiqotlarini qayd etish o‘rinli, lekin yosh va pedagogik psixologiya. rivojlanish psixologiyasi yo‘nalishida stress holatining o‘smir yoshidagi sportchilar faoliyatiga psixologik ta‘siri masalalari ilmiy tadqiq etilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan A.N.Akopyan, L.I.Anfitserova, S.A.Babanov, V.A.Bodrov, D.M.Gushin, L.G.Dikaya, I.M.Yeliseeva, E.P.Il’in, V.P.Zinchenko, D.A.Leont’ev, O.V.Lo zgachova, E.B.Morgunov, S.A.Razumov, V.A.Ponomarenko, M.L.Xutornaya va boshqalar tomonidan shaxsning stressga barqarorligining faoliyatga ta‘siri, shaxsiy omillarning stressni yengishga ta‘siri, qiyin vaziyatlarda inson xulqi va koping-strategiya xulqi, talabalarning imtihon oldi holati va emotsional zo‘riqish, stressning fiziologik va psixologik omillari kabi masalalarida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Sport psixologiyasi yo‘nalishida V.Mel’nikov, V.Norakadze, Yu.Palayma, R.Piloyan, A.Puni, A.Rodionov, N.Xudadovlarning tadqiqot ishlarida sportchilarning

musobaqalarga psixologik tayyorgarligi holati muammosi o'rganilgan bo'lib, sportchining muvaffaqiyatli ishtiroki stressga barqarorligi bilan bog'liqligi ta'kidlangan.

Xorij psixolog olimlari A.Adler, G.Ayzenk, Dj.Everli, E.Erikson, R.Kettell, X.Murrey, R.Rozenfeld, Z.Freydlar tomonidan stressga moyillik, hissiy stress, psixik bosim, stressda shaxs xususiyatlari, xulq-atvorning genetik nazariyasi, xavotirlik holati masalalari borasida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Sh.Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti Psixologiya kafedrasining «Shaxs taraqqiyotining ijtimoiy-psixologik muammolari» mavzusida ilmiy tadqiqoti doirasida bajarilgan (2021-2025–y.y).

Tadqiqot maqsadi stress holatining o'smir sportchilar faoliyatiga psixologik ta'sirini empirik tadqiq etish hamda ularning stressga barqarorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

o'smir sportchilarning stress holatida o'zini-o'zi baholash xususiyatlariga ko'ra ta'sirini asoslash;

o'smir sportchilarning stress holatiga barqarorligi darajasi xususiyatlarini empirik tadqiq qilish;

o'smir sportchilarning stress barqarorligida shaxs xususiyatlarining ta'siri ahamiyatini o'rganish;

o'smir sportchilarni stress holatidan chiqishida koping-strategiya usuli va frustratsiya holatining ahamiyatini aniqlash.

Tadqiqot ob'ekti sifatida stress holatining o'smir sportchilar faoliyatiga psixologik ta'sirini aniqlash jarayoni tanlangan bo'lib, tadqiqotda Samarqand viloyati Qo'shrobot tumani BO'SM o'smir sportchilardan 26 nafar, Payariq tumani BO'SM o'smir sportchilardan 30 nafar va Samarqand shahrida faoliyat yuritayotgan BO'SM o'smir sportchilardan 30 nafar, jami 86 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etilgan.

Tadqiqot predmetini stress holatining o'smir sportchilar faoliyatiga frustratsion, o'z o'zini baxolash, shaxs xususiyatlari va shaxs barqarorligiga psixologik ta'siri hamda omillari tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqotda suhbat, kuzatish metodlari, N.S.Fetiskinning «O'zini-o'zi baholashning ekspress diagnostikasi», N.B.Kirsheva va N.S. Ryabchikovalarning «Shaxsning stressga barqarorligini aniqlash», V.M.Mel'nikov va L.T.Yampol'skiylarning «Psixodiagnostika testi», D.Amirxanning «Koping-strategiya indikatorini», V.V.Boykoning «Frustratsiya holatini aniqlash» metodikalaridan aniqlash metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning statistik ishonchlilik darajasi matematik statistika metodlaridan bir omilli dispersion tahlil (ANOVA), F-Pirson korrelyatsiya koeffitsienti va SPSS-14 dasturi orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'smir sportchilarning stress holatida o'zini-o'zi baholash xususiyatlarining differensial namoyon bo'lishi ta'sirida musobaqalar jarayonida «o'ziga ishonch», «sovuqqonlik», «diqqatni barqarorligi», «hissiyotga berilmaslik» bilan bog'liq jihatlar

asosida shakllanishi tufayli o'zini-o'zi baholashda raqibga nisbatan barqaror munosabat paydo bo'lishi asoslangan;

o'smir sportchilarning stress holatiga barqarorlik xususiyatlari darajasining namoyon bo'lishiga ko'ra sport musobaqalarida o'zlariga «real baho berish», «qaltis vaziyatlarga tayyor turish», «qisqa vaqt ichida adekvat qaror qabul qilish» jihatlarining ta'siri bilan bog'liqligi aniqlangan;

sport musobaqalari jarayonida o'smir sportchilar shaxsida salbiy xususiyatlarni (asabiylik, ruhiy tajanglik, qarshi tura olish, hadiksirash) stress holatiga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun ijobiy xususiyatlarini (umumiy faollik, vijdonlilik, dilkashlik,) shakllanishi asosida «intuitiv to'g'ri qaror qabul qilish», «o'zaro hamkorlik», «ijtimoiy-etik talablarga amal qilish», «atrofdagilarga e'tiborlilik» xislatlarini yuzaga chiqishi sababli stressga barqarorligidagi ahamiyati isbotlangan;

o'smir sportchilarning stress holatidan chiqishiga ta'sir etuvchi koping-strategiya usullari hamda frustratsion tolerantlik holati natijasida yuzaga keladigan vaziyatlarni «samarali hal qilish», «barcha imkoniyatlarni ishga solish», «stressogen vaziyatlarga ahamiyat bermaslik», «vaziyatga oqilona yondoshish» jihatlarini asosida stress holatini yengillashtirish imkoniyatini kengaytirish ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

o'smir sportchilarning stress holatida o'zini-o'zi baholash xususiyatlari va ularning o'ziga xos jihatlarini aniqlangan;

o'smir sportchilarning stress holatiga barqarorligi darajasining namoyon bo'lish jihatlarini shaxs xususiyatlari bilan bog'liqligi amalyotda qo'llanilgan;

o'smir sportchilarning stress holatidan chiqishida koping-strategiya usullari va frustratsion tolerantlik holatining samaradorligi aprobeziya qilingan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, xalqaro miqyosda tan olingan metodik vositalar, ma'lumotlarning reprezentativligi, empirik tadqiqotlar ilmiy-nazariy chuqur asoslab berilganligi; aniqlangan ko'rsatkichlarning ishonchli, ilmiy manbalarga asoslanganligi; psixometrik talablarga javob beradigan psixodiagnostik usullardan foydalanilganligi; empirik natijalarning maqsadga muvofiq tahlil qilinganligi, natijalar «Ms Excel», «IBM SPSS Statistics 21» dasturlari vositasida qayta ishlanganligi; ilmiy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati psixologiya yo'nalishida stress holatining o'smir sportchilar faoliyatiga psixologik ta'siri jihatlarini ochib berilganligi, o'smir sportchilarning o'zini-o'zi baholashi, shaxs barqarorligi, stress holatida o'smir sportchilarning shaxs xususiyatlarining ta'siri, frustratsion hamda koping-strategiyani qo'llashning ahamiyati, olingan ilmiy xulosalardan ijtimoiy va pedagogik psixologiya yo'nalishlaridagi ilmiy izlanishlarda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalarning ma'lumotlaridan stress holatini o'smir sportchilar faoliyatida psixologik ta'sirini kamaytirish, ularning stressga barqarorligini oshirishda foydalanish mumkinligi, olingan natijalar o'smir sportchilar faoliyatida yuzaga keladigan stress holatini bartaraf etishga xizmat qilishi,

nazariy va ilmiy-amaliy xulosalardan o'smir sportchilar bilan olib boriladigan psixoprofilaktik va korreksion ishlarni tashkil qilishda, shuningdek, «Sport psixologiyasi», «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» modullari mazmuniga singdirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Stress holatining o'smir sportchilar faoliyatiga psixologik ta'sirini o'rganish bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida:

o'smir sportchilarning stress holatida o'zini-o'zi baholash xususiyatlarining differensial namoyon bo'lishi ta'sirida musobaqalar jarayonida «o'ziga ishonch», «sovuqqonlik», «diqqatni barqarorligi», «hissiyotga berilmaslik» bilan bog'liq jihatlar asosida shakllanishi tufayli o'zini-o'zi baholashda raqibga nisbatan barqaror munosabat paydo bo'lishi asoslanganligiga oid ma'lumotlar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-235-sonli buyrug'i bilan «Sport psixologiyasi» moduli mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi PM-235-a son ma'lumotnomasi). Natijada o'smir sportchilarning stress holatida o'zini-o'zi baholash jihatlari ijobiy bo'lishiga erishilgan;

o'smir sportchilarning stress holatiga barqarorlik xususiyatlari darajasining namoyon bo'lishiga ko'ra sport musobaqalarida o'zlariga «real baho berish», «qaltis vaziyatlarga tayyor turish», «qisqa vaqt ichida adekvat qaror qabul qilish» jihatlarining ta'siri bilan bog'liqligiga oid ilmiy natija va tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-235-sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduli mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi PM-235-a son ma'lumotnomasi). Natijada o'smir sportchilarning stress holatiga barqarorlik xususiyatlari darajasining ijobiy jihatdan namoyon bo'lishiga erishilgan;

sport musobaqalari jarayonida o'smir sportchilar shaxsida salbiy xususiyatlarni (asabiylik, ruhiy tajanglik, Qarshi tura olish, hadiksirash) stress holatiga salbiy ta'sirini kamaytirish uchun ijobiy xususiyatlarini (umumiy faollik, vijdonlilik, dilkashlik, Femininlik) shakllanishi asosida «intuitiv to'g'ri qaror qabul qilish», «o'zaro hamkorlik», «ijtimoiy-etik talablarga amal qilish», «atrofdagilarga e'tiborlilik» xislatlarini yuzaga chiqishi sababli stressga barqarorligidagi ahamiyati oid ilmiy xulosalar va tavsiyalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-235-sonli buyrug'i bilan «Sport psixologiyasi» moduli mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi PM-235-a son ma'lumotnomasi). Natijada o'smir sportchilar shaxsida ijobiy xislatlarini yuzaga chiqishi sababli stressga barqarorligidagi ahamiyati xususiyatlarining oshishiga erishilgan;

o'smir sportchilarning stress holatidan chiqishiga ta'sir etuvchi koping-strategiya usullari hamda frustratsion tolerantlik holati natijasida yuzaga keladigan vaziyatlarni «samarali hal qilish», «barcha imkoniyatlarni ishga solish», «stressogen

vaziyatlarga ahamiyat bermaslik», «vaziyatga oqilona yondoshish» jihatlari asosida stress holatini yengillashtirish imkoniyatini kengaytirish mumkinligi dalillangan xulosalar Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 7-oktyabrdagi PM-235-sonli buyrug'i bilan «Ontogenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduli mazmuniga singdirilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya o'quv-ilmiiy markazining 2024-yil 8-oktyabrdagi PM-235-a son ma'lumotnomasi). Natijada o'smir sportchilarning stress holatidan chiqishiga ta'sir etuvchi koping-strategiya usullari hamda frustratsion tolerantlik holatini rivojlantirish ko'nikmalari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta Respublika va 3 ta xalqaro konferensiyalarda muhokoma etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqotning asosiy natijalari bo'yicha 6 ta ilmiy maqola, jumladan O'zbekiston Respublikasi OAK tavsiya etgan jurnallarda 3 ta va xorijiy jurnallarda 3ta chop etilgan.

Dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 123 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti aniqlangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchlilik, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, aprobatsiyasi va e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Psixologiyada stress muammosini tadqiq qilinishining ilmiy - nazariy jihatlari**» deb nomlangan bo'lib, mazkur bobda stress muammosi borasida Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi va chet el psixologlarining ilmiy tadqiqot ishlari tahlili, o'zbek olimlarining stress masalasida o'tkazilgan tadqiqot natijalari tahlili masalalariga e'tibor qaratilgan, ularning nazariy tahlili yoritilgan va bob bo'yicha xulosalar shakllantirilgan. Respublikamizda M.G.Davletshin, N.Z.Ismoilova, N.G'.Kamilova, V.M.Karimova, Z.T.Nishonova, R.S.Samarov, B.N.Sirliiev, G'.B.Shoumarov, B.M.Umarov, E.Usmonov, P.S.Ergashev U.D.Qodirov, K.B.Qodirov, E.G'.G'oziev, O.E.Hayitovlarning ilmiy tadqiqot ishlarida stress muammosiga yondosh bo'lgan psixologik holatlar, ya'ni asabiylik, ruhiy tajanglik, ruhiy inqiroz, suitsidal hulq-atvor kabi stressga xos psixologik jihatlari haqida ma'lumotlar tahlili yoritilgan. N.Z.Ismoilovanning ilmiy izlanishlari talabalarda stressga barqarorlikni oshirishning psixologik determinantlari masalasiga bag'ishlangan bo'lib, unda talabalarda stressga barqarorlikni darajasi, informatsion stress komponentlari, shaxslararo munosabat ustanovkalari, o'ziga baho

berish, frustratsion tolerantlik darajalari kabi psixologik determinantlari o'rganilgan. Sport psixologiyasi yo'nalishida stress muammosi deyarli o'rganilmagan, lekin sport psixologiyasi yo'nalishida R.A.Abdurasulov, X.Sh.Baratov, B.X.Fayzievlarning tadqiqotlarida sportchilarning faoliyatida stress holatlarining yuzaga kelishini psixologik jihatlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi olimlaridan A.N.Akopyan, L.I.Anfitserova, S.A.Babanov, V.A.Bodrov, D.M.Gushin, L.G.Dikaya, I.M.Yeliseeva, E.P.Ilin, V.P.Zinchenko, D.A.Leontev, O.V.Lo zgachova, E.B.Morgunov, S.A.Razumov, V.A.Ponomarenko, M.L.Xutornaya va boshqalar tomonidan shaxsning stressga barqarorligining faoliyatga ta'siri, shaxsiy omillarning stressni yengishga ta'siri, qiyin vaziyatlarda inson xulqi va koping-strategiya xulqi, talabalarning imtihon oldi holati va emotsional zo'riqish, stressning fiziologik va psixologik omillari kabi masalalarida ilmiy izlanishlar olib borishgan. Sport psixologiyasi yo'nalishida V.Norakadze, Yu.Palayma, R.Piloyan, A.Rodionov, V.Melnikov, N.Xudadov, A.Punilarning tadqiqot ishlarida sportchilarning musobaqalarga psixologik tayyorgarligi holati muammosi o'rganilgan bo'lib, sportchining muvaffaqiyatli ishtiroki stressga barqarorligi bilan bog'liqligi ta'kidlangan.

Xorij olimlaridan A.Adler, G.Ayzenk, Dj.Everli, E.Erikson, R.Kettell, X.Murrey, R.Rozenfeld, Z.Freyd va boshqalar tomonidan stressga moyillik, hissiy stress, psixik bosim, stressda shaxs xususiyatlari, xulq-atvorning genetik nazariyasi, xavotirlik holati masalalarida olib borilgan ilmiy izlanishlar borasidagi ma'lumotlar yoritilgan.

Dissertatsiyaning «**Stress holatida o'smir sportchilar shaxs xususiyatlarining namoyon bo'lishi**» deb nomlangan ikkinchi bobida mazkur masala borasida olib borilgan tadqiqot natijalari yoritilgan va bob bo'yicha xulosalar berilgan.

Biz o'smir sportchilarning stress holaatida o'zini-o'zi baholash xususiyatlarini o'rganish maqsadida N.S.Fetiskin tomonidan tavsiya qilingan «O'zini-o'zi baholashning ekspress diagnostikasi» metodikasidan foydalandik, natijalari 1-jadvalda ifodalangan.

1-jadval

O'smir sportchilarda "o'zini-o'zi baholashning ekspress diagnostikasi"ning dispersion natijalari (ANOVA)

Shkala	Sport turlari						F	p
	Yunon-rum n=30		Milliy kurash n=26		Dzyudo n=30			
	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	O'rtacha qiymat	Standart og'ish		
O'z-o'ziga baho bersh	24,55	8,36	25,20	8,29	24,88	8,66	,089	,915

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shundan dalolat bermoqdaki, yunon-rum, milliy kurash hamda dzyudo kurashi bilan shug'ullanadigan o'smir sportchilarning o'zini-o'zi baholash darajalari o'rtasida katta tafovut ko'zga tashlanmadi, barcha kurash turlari bilan shug'ullanuvchi o'smir sportchilarda o'zini-o'zi baholash ko'rsatkichi

o‘rtacha qiymatga ega ekan, ya’ni ular o‘zlariga baho berishda yuzaga kelgan vaziyatlarda real, adekvat baho berar ekanlar.

Aytish joizki, tadqiqot natijalarining o‘smir sportchilar shug‘ullanayotgan kurash turlarining sportchilar oldiga qo‘yadigan talablari bilan bog‘liqligini ta’kidlab o‘tish lozim, chunki yunon-rum kurashi, dzyudo va milliy kurash turlarining o‘ziga xos jihatlari ham sportchilardan kurash jarayonida, musobaqa vaqtida o‘ziga bo‘lgan ishonchni, har qanday vaziyatlarda ham sovuqqonlikni yo‘qotmaslikni, diqqatni barqarorligini ta’minlashni, o‘z imkoniyatini to‘g‘ri baholashni, eng asosiysi, aqlni ishlatishni talab qiladi, chunki qisqa muddat ichida sportchilar juda kuchli bosim ostida harakat qilishlari va shu muddatda turli vaziyatlarga bardosh berishlari lozim bo‘ladi. Bunday vaziyatlarda o‘ziga real, adekvat baho bera olgan va fikrlash tezligi shakllangan sportchi muvaffaqiyatga erisha oladi.

Biz tadqiqotimizda o‘smir sportchilarning stressga barqarorligini o‘rganishga harakat qildik, o‘z oldimizga qo‘ygan vazifani amalga oshirish maqsadida tadqiqot jarayonida N.V.Kersheva va N.V.Ryabchikovalar tomonidan tavsiya etilgan “Shaxsning stressga barqarorligini aniqlash” metodikasidan foydalandik. Mazkur metodika shaxsning stressga barqarorlik darajasini aniqlash imkonini beradi, shuningdek ushbu metodika O‘zbekiston sharoitida amaliy tajribadan o‘tgan bo‘lib, bir qancha o‘zbek psixologlari tomonidan qo‘llanilgan metodika hisoblanadi. Natijalar quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

O‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasi dispersion natijalari (ANOVA)

Shkala	Sport turlari						F	p
	Yunon-rum n=30		Milliy kurash n=26		Dzyudo n=30			
	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish		
Stressga barqarorlik	33,3	6,81	32,6	6,46	32,0	4,72	,637	,530

O‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasining tadqiqot natijalarini tahlil qilishda asosan ularning ko‘rsatkichlarini o‘rtacha qiymati asosida izohlashga urg‘u berdik. Chunki shaxsning kundalik ijtimoiy faoliyati jarayonida yuzaga keladigan stressogen vaziyatlarda stressga barqarorlik darajasi katta fiozni tashkil etmasligi mumkin, biroq sport mashg‘ulotlari bilan muntazam shug‘ullanish jarayoni sportchilarning stressga bardoshlilik qobiliyatini ijobiy jihatdan namoyon bo‘lishiga yordam beradi, chunki sport mashg‘ulotlari davridagi psixologik bosimga bardosh berish, musobaqa vaqtida yuzaga keladigan qiyin, murakkab vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish va vaziyatni o‘z tomoniga og‘dirib olish xususiyatlari mashg‘ulotlar jarayonida shakllanadi.

O‘smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasi bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, yunon-rum kurashi, milliy kurash va dzyudo kurashi bilan shug‘ullanadigan o‘quvchilarda stressga barqarorlik darajasi o‘rtadan baland natijani ko‘rsatmoqda, shuningdek, barcha kurash turlari ko‘rsatkichlarida katta farq kuzatilmadi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, natijalarning

bu darajasi mazkur kurash turlarining o'ziga xos xususiyati bilan bevosita bog'liqligida izohlanadi, chunki o'smir sportchilarning stressga barqarorlik darajasining bu ko'rsatkichi ularning, ayniqsa sport musobaqalari jarayonida muvaffaqiyatga erishishlarida katta ahamiyatga ega bo'ladi, ya'ni o'smir sportchilar bo'lajak musobaqaga nafaqat jismoniy, shuningdek psixologik jihatdan ham tayyor bo'lishlari lozim bo'ladi.

3-jadval

O'smir sportchilarda "Psixodiagnostika testi"ning dispersion natijalari (ANOVA)

№	Shkala	Sport turlari						F	p
		Yunon-rum n=30		Milliy kurash n=26		Dzyudo n=30			
		O'rtacha qiymat	Standart og'ish	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	O'rtacha qiymat	Standart og'ish		
1	Asabiylik	8,66	1,85	8,45	1,84	8,70	1,52	,362	,697
2	Ruhiy tajanglik	9,93	1,44	9,93	1,44	11,58	1,30	,468	,627
3	Ruhiy azoblanish	10,30	1,83	10,30	1,83	10,46	2,09	,150	,861
4	Vijdonlilik	10,55	1,54	10,55	1,54	10,58	1,52	,009	,991
5	Qarshi tura olish	6,38	1,57	6,38	1,57	6,53	1,65	,176	,839
6	Umumiy faollik	10,80	1,28	10,80	1,28	10,56	1,31	,013	,987
7	Hadikirash	7,00	1,16	7,00	1,16	7,13	1,25	,249	,780
8	Dilkashlik	7,18	1,14	7,18	1,14	7,98	1,14	,613	,543
9	Estetik ta'sirlanish	5,78	1,41	5,78	1,41	5,70	1,36	,071	,932
10	Femininlik	4,15	1,69	4,15	1,69	4,41	1,36	,560	,572
11	Ruhiy beqarorlik	8,36	1,05	8,36	1,05	8,36	1,053	,000	1,000
12	Asotsiallik	8,01	1,32	8,11	1,32	8,36	1,23	1,466	,234
13	Odamovilik	8,63	1,90	8,93	1,93	9,51	1,34	2,188	,115
14	Tortinchoqlik	6,55	1,22	6,55	1,22	6,55	1,28	,000	1,000

O'smir sportchilardagi stressga barqarorligini biz ularning shaxs xislatlari bilan qanchalik bog'liqligini aniqlashga harakat qildik, shu sababli ham tadqiqotimizda V.M.Melnikov va L.T.Yampolskiylar tomonidan tavsiya etilgan psixodiagnostika testidan foydalandik. Yuqoridagi 3-jadvalda tadqiqot natijalari keltirilgan.

Sport musobaqasi jarayonida sportchilar kuchli stress holatidan chiqa olishlari, kurash vaqtidagi kuchli psixologik bosimga bardosh bera olishlari uchun ulardan irodaviy sifatlar talab qilinadi, ular nafaqat o'z kuchlariga ishonishlari, o'zlariga real baho bera olishlari, musobaqa va raqib bilan kurashish jarayonida yuzaga keladigan qaltis vaziyatda to'g'ri baho bera olishlari, qisqa vaqt ichida real, adekvat qaror qabul qilishlari ham lozim bo'ladi, bu esa sportchilardan atrofidagi stressogen holatlar, bosimlarga bo'lgan munosabatiga, ularni qabul qilishi va tekor tahlil qilishiga bog'liq bo'ladi.

1. Asabiylik. Sportning kurash turlari bilan shug'ullanuvchi o'smir sportchilarning natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, Yunon-rum, Milliy kurash, Dzyudo kurash natijalari asabiylik shkalasi bo'yicha ko'rsatkichi o'rtadan past natijalarga egadir. Bu natija asosida aytish mumkinki, Yunon-rum, Milliy kurashga, qaraganda Dzyudo kurashida o'rtacha qiymat baland chiqmoqda ularning ishchanlik va yuqori chidamlilik qobiliyati har-xil turdagi kuchli ta'sirlarga psixik jihatdan adekvat javob qaytarishlaridan dalolat beradi.

2. Ruhii tajanglik. Aytish lozimki, ruhiy tajanglik shkalasi bo'yicha past ko'rsatkich fikrlashda va xulq-atvorda o'ziga xoslik, mustaqillikning yetishmasligi, standartlik, stereotiplik bilan xarakterlanadi. Ularga barcha voqea-hodisalar, ularni o'rab turgan dunyo minimal sub'ektiv buzib ko'rinadi, ya'ni barchasini yaltiroq, xuddi oynada ko'ringanidek, ularni atrofida nima bo'lsa, shuni qabul qiladilar.

Ularning fikri, kiyinishi, o'zini tutishi ularni qanday muhitda faoliyat ko'rsatishi bilan bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga, ularning o'zini tutishi yoqimli ijtimoiy sharoitlarda atrofda odamlarning o'zini tutishidan farq qilmaydi, ular tartibli, mas'uliyatli, vijdonli, tinchliksevar bo'lib ko'rinadilar, ularning tashqi ko'rinishida ijtimoiylashganlik aks etsada, ular doimiy e'tiborga, nazoratga va qo'llab-qo'vvatlashga muxtoj bo'ladilar. Biroq, tadqiqotlar natijasi shundan dalolat bermoqdaki, sportning kurash turlari bilan shug'ullanish o'smir sportchilarda hissiy o'zgaruvchanlik, ta'sirchanlik, ularning ijtimoiylashuvini, shuningdek xulq-atvorini ijobiy jihatdan namoyon bo'lishiga yordam berar ekan.

3. Ruhii azoblanish. O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'smir sportchilarning ruhiy azoblanish shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlari o'rtadan past, ya'ni ijobiy jihatdan namoyon bo'lmoqda. Mazkur shkalada past baholanish tabiiy xushchaqchaqlik, quvnoqlik, tashabbuskorlik, chaqqonlik va faollikni bildiradi. Bu holat esa shuni ko'rsatmoqdaki, sport kurashining yunon-rum, milliy kurash va dzyudo turlari bilan shug'ullanuvchi o'smir sportchilarda psixikaning ko'pqirraligi, egiluvchanligi, o'zaro munosabatlarda erkinligi, o'ziga va o'z kuchiga ishonishi, turli xildagi faoliyatni muvaffaqiyatli bajarishda talab etiladigan faollik, qat'iylik va ishtiyoqning yuqoriligi bilan ajralib turadilar.

4. Vijdonlilik. O'smir sportchilar bilan olib borilgan tadqiqot natijalari ularda vijdonlilik shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlari o'rtadan yuqori ballni ko'rsatmoqda. Bu natijalar asosida aytish mumkinki, ularda mas'uliyat hissi, oliyjanoblik, axloqiy prinsiplarning turg'unligi bilan xarakterlidir. Ular o'z xulq-atvorlarini boshqarishda vijdon amriga bo'ysungan holda vazifani bajaradilar, yetuk va ijtimoiy talablarga qat'iy amal qiladilar, bunda ular o'zlarining ichki talab va o'zlariga bo'lgan talabchanlikka tayanadilar. Ular axloqiy normalarga hurmat bilan yondoshadilar, faoliyatda tartibli, qonunlarni hurmat qiladilar, o'zlariga zarar bo'lsa ham noqonuniy faoliyatga yo'l qo'ymaydilar.

5. Qarshi tura olish. O'tkazilgan tadqiqot natijalari o'smir sportchilarda qarshi tura olish darajasining o'rtadan past ekanligini ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich kurash turlari bilan shug'ullanuvchi o'smir sportchilarning o'zlarini xatti-harakatlarini va xulq-atvorlarini yaxshi nazorat qila olishlari hamda har qanday vaziyatlarga vazminlik bilan munosabat bildirishlaridan, shuningdek, ijtimoiy talablarga, o'zini tutishda va muomala qilishda ehtiyot bo'lishga harakat qilishlaridan dalolat beradi. Bizni nazarimizda, bu holat ularning ijtimoiylashuvining ijobiy jihati va o'z xohish-

istaklarini nazorat qilish kabi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, shuningdek kurash mashg'ulotlarining ushbu omillarga ijobiy ta'sir ko'rsatishining dalilidir.

6. Umumiy faollik. O'smir sportchilar bilan o'tkazilgan tadqiqotda umumiy faollik shkalasi bo'yicha natijalar ham o'rtacha balldan yuqori ko'rsatkichga ega bo'ldi. Bizni nazarimizda, bu ko'rsatkich normal bo'lib, o'smirlik davri yosh xususiyatlariga mos keladi, chunki o'smir sportchilar uchun bu holatni aqlli faollik ko'rsatishning namoyon bo'lishi bilan xarakterlash o'rinlidir. Xulosa qilib aytganda, ular faollik, tashabbuskorlik kabi xislatlarni ko'rsata oladilar hamda mashg'ulotlarda qo'shimcha vazifalarni bajarishdan qochmaydilar.

7. Hadiksirash. Bizning tadqiqot natijalarimiz ham o'smir sportchilarda hadiksirash shkalasi bo'yicha o'rtacha natijani ko'rsatmoqda. Bu esa metodikaning ishonchliligidan dalolat beradi. Tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, o'smir sportchilarda jasurlik, qat'iylik, tavakkal qilishga moyillik hamda notanish va qaltis vaziyatlarda o'zlarini yo'qotib qo'ymaslik xislatlari namoyon bo'lmoqda. Ular tezkor qaror qabul qiladilar va uning ijrosini tezda amalga oshiradilar, kutib o'tirishni yoqtirmaydilar, ikkilanish, ortga surish va ikkiyuzlamachilikni qabul qila olmaydilar. Jamoada o'zlarini erkin, mustaqil va biroz surbetlarcha tutadilar, hamma narsaga aralashishni va o'zlarini ko'rsatishni yoqtiradilar. Bu holat tavakkal qilish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga, shu jumladan sportchilarga xos bo'lgan xislat hisoblanadi.

8. Dilkashlik. O'smir sportchilarning dilkashlik shkalasi bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari o'rtadan yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, uchala kurash turlarida taxminan bir xil darajani ko'rsatmoqda. Olingan natijalar asosida aytish mumkinki, o'smir sportchilarning muloqotini keng qirraligi, muloqotga qizg'in kirishishi, hissiyotlarning yorqinligi va hissiyotga boyligi, o'zini tutishini tabiiyligi va erkinligi, hamkorlikka tayyorligi, odamlarga bo'lgan e'tiborlilik va g'amxo'rlik, ko'ngilchanligi bilan xarakterlanadi. Ular muloqotchan, atrofidagi odamlar bilan tez til topishadi, do'stlar va tanishlari ko'p, do'stlariga sadoqatli, ularning ichki kechinmalarini his qiladilar, ularni qayg'u va quvonchlariga sherik bo'ladilar. Bizning nazarimizda, bu holat o'smirlik yoshiga xos bo'lgan xususiyat bo'lib, ularda muloqotga intilish, o'zlariga ko'proq do'st va tanishlar orttirish, jamoa bilan ishlash va dam olish yosh davrlarining o'ziga xos xususiyatlarining namoyon bo'lish bilan bog'liq holat hisoblanadi.

9. Estetik ta'sirlanish. Estetik ta'sirlanish shkalasi bo'yicha olingan tadqiqot natijalari o'smir sportchilarda o'rtadan yuqori ko'rsatkichni ko'rsatmoqda, ularning natijalarida tafovut aniqlanmadi. Mazkur natijalar shundan dalolat beradiki, o'smir sportchilarda vazminlik, bosiqlik, sog'lom fikrlash, kundalik hayotda muhim bo'lgan narsalarni ajrata oladigan, vaziyatlarni va odamlarni to'g'ri baholaydigan xislatlari ijobiy jihatdan namoyon bo'lmoqda. Mulohazakorlik, abstrakt tafakkur qilish, xotira va idrok ularga xos bo'lgan xususiyatdir. Hayotda yuz beradigan barcha voqea va hodisa, vaziyatlarga mantiqan yondashadilar, ularga oqilona asos va amaliy yechim izlaydilar.

10. Femininlik. O'smir sportchilarda femininlik shkalasi bo'yicha olingan tadqiqotlar natijasi o'rtadan past ko'rsatkichda namoyon bo'lmoqda. Olingan natijalar o'smir sportchilarning jasurlik, epchillik, uddaburonlik, o'zini namoyon qilish, tavakkalchilik hamda yetarlicha asoslanmagan va chuqur o'ylamagan holda tez va qat'iy harakat qilishga moyilligi haqida dalolat bermoqda. Ularning qiziqishi tor

doirada va amaliy, fikr-mulohazasi real va sog'lom, o'zini tutishida esa o'ziga xoslik yetishmaydi. Ular qiyin, mavhum bo'lgan vaziyatlardan qochishga xarakat qiladilar, o'zini va boshqalarni xulq-atvorini haqiqiy sabablarini yaxshi tushunmaydilar, o'zlarining kamchiliklariga ko'ngilchanlik bilan yondoshadilar, o'zini-o'zi tahlil qilishga ko'p ham e'tibor bermaydilar, hissiy lazzatni yoqtiradilar va o'z kuchlariga ishonadilar.

11. Ruhiiy beqarorlik. Tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, o'smir sportchilarda ruhiy tuturiqsizlik shkalasi bo'yicha ko'rsatkichlar o'rtadan past darajani ko'rsatmoqda. Demak, mazkur natijalar o'smir sportchilarda ichki bezovtalik, taranglikni mavjud emasligidan dalolat beradi, ularning nizolardan xoliligi, o'zidan va muvaffaqiyatidan qoniqishi, ijtimoiy talab va normalarga rioya qilishga tayyor ekanligi ijobiy jihatdan namoyon bo'lmoqda. Bizning fikrimizcha, o'smir sportchilardagi bu xususiyatlarni shakllanishida sport kurash mashg'ulotlarining ahamiyatli o'rni bor.

12. Asotsiallik. O'smir sportchilar bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalari asotsiallik shkalasi bo'yicha o'rtacha ballni ko'rsatmoqda. Olingan natijalar shundan dalolat beradiki, o'smir sportchilarda ijtimoiy normalarga moslashganlik, konformlilik, kamtarlik va qiziqishlar doirasining normal shakllanganligi namoyon bo'lmoqda. Ular yetarli darajada faol, ko'ngilchan, qat'iy, erkin va o'zlarida mavjud bo'lgan narsalarga qanoat qiladilar, o'zlaridan katta yoshdagilarga hurmat bilan munosabatda bo'ladilar va ularni fikrlarini inobatga oladilar.

13. Odamovilik. Mazkur shkala bo'yicha olingan tadqiqot natijalari kurash mashg'ulotlari bilan shug'ullanadigan o'smir sportchilarda o'rtadan past ko'rsatkichda namoyon bo'lmoqda. Tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, o'smir sportchilar ijtimoiy jihatdan uddaburon, nutqi ravon, yuqori faollik ko'rsatadigan, jamoadago o'zaro munosabatlarni qadrlaydigan va o'z maqsadlariga erishishda ularning yordamidan foydalanadigan xislatlarga ega hisoblanadilar. Ular ijtimoiy muvaffaqiyatga katta ahamiyat beradilar, o'z shaxsiy xizmatlarini jamiyat tan olishiga harakat qiladilar, bu holat esa ba'zan norozilikka ham sabab bo'lishi mumkin.

14. Tortinchoqlik. Ushbu tadqiqot natijalari o'smir sportchilarning hissiy jihatdan yetuk, orzu-istakka berilmaydigan, real va aql bilan fikrlaydigan xislatlaridan dalolat beradi. Ularning qiziqishi bir xil va tor bo'lib, ma'naviy va sub'ektiv qadriyatlarga uncha qiziqish bildirmaydilar. O'z xulq-atvorida, o'zlarini tutishlarida ular ishonchli, aniq his qiladigan qadriyatlarga, ya'ni obro'-e'tibor, lavozim va moddiy narsalarga tayanadilar. Bu esa shundan dalolat beradiki, o'smir sportchilar bir me'yorda aql bilan fikrlaydilar, atrofdagi odamlarga noquvaylik tug'dirmaslikka harakat qiladilar, boshqalardagi to'g'riso'zlikni va samimiylikni qadrlaydilar, bular esa kurash mashg'ulotlarining ta'siri natijasidir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**O'smir sportchilarni stress holatidan chiqishining psixologik usullari**» deb nomlangan bo'lib, unda o'smir sportchilarning stress holatidan chiqishida koping-strategiyaning ahamiyati, o'smir sportchilar faoliyatida stressdan chiqishda frustratsiya holatining ta'siri, o'smir sportchilarning stress holatiga tushishni oldini olishda profilaktik tadbirlarni tashkil etish ishlari tahlil qilingan.

Biz o‘smir sportchilarni stress holatidan chiqishini tadqiq qilishimiz uchun D.Amirxan tomonidan tavsiya etilgan “Koping-strategiya indikator” metodikasidan foydalandik. Tadqiqotda qo‘llanilgan ushbu metodika shaxsning dominant koping-strategiyalarini aniqlashga yordam beradi. Koping-strategiya natijalari uch guruhga bo‘lgan holda izohlanadi, biz ham shu asosda o‘smir sportchilarning ko‘rsatgan natijalarini izohlashga harakat qildik.

Natijalar 4-jadvalda keltirilgan.

4-jadval

Koping-strategiya indikator metodikasi bo‘yicha o‘smir–sportchilarning natijalari

Shkala	Sport turlari						F	P
	Yunon-rum n=30		Milliy kurash n=26		Dzyudo n=30			
	O‘rtacha qiymat	Standart qiymat	O‘rtacha qiymat	Standart qiymat	O‘rtacha qiymat	Standart qiymat		
Muammoni hal etish	26,13	4,80	26,36	4,82	26,66	4,22	,200	,819
